



## SOCIAL AND POLITICAL IMPORTANCE OF IMPROVING THE HISTORICAL CONSCIOUSNESS OF YOUNG PEOPLE

*Akmaljon Akhmadjanov*

*researcher*

*Namangan State University*

*Uzbekistan, Namangan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** historical consciousness, history, monument, thinking, social consciousness, globalization, value, language.

**Received:** 28.10.24

**Accepted:** 30.10.24

**Published:** 01.11.24

**Abstract:** The article describes the social aspects of improving the historical consciousness of young people, and historical consciousness is becoming an important issue of today as an important point of global society. Today's desire to study the true history of the people naturally leads to the development of national consciousness. When thinking about the national consciousness, its aspects that directly affect the formation of the worldview of young people, it is necessary to take into account that the image of each nation, regardless of its size or size, is first of all embodied in its national consciousness and psychology. As one of a number of factors that shape and develop the national social memory of the society, historical consciousness is gaining urgent importance as a political and spiritual weapon in the geopolitical landscape of the world.

## YOSHLAR TARIXIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY AHAMIYATI

*Akmaljon Axmadjanov*

*tadqiqotchi*

*Namangan davlat universiteti*

*O'zbekiston, Namangan*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** tarixiy ong, tarix, obida, tafakkur, jamiyat ongi, globallashuv, qadriyat, til.

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlar tarixiy ongini takomillashtirishning ijtimoiy jihatlari bayon etilgan bo'lib, tarixiy ong global jamiyatning muhim nuqtasi sifatida bugunning

muhim masalasiga aylanmoqda. Xalqning haqiqiy tarixini o'rganishga bo'lgan bugungi intilish tabiiy ravishda milliy ongning rivojlanishiga olib keladi. Milliy ong, uning yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan jihatlari xususida fikr yuritganda har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, uning milliy ongi va psixologiyasida gavdalanishini e'tiborga olish lozim. Jamiyat milliy ijtimoiy xotirasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi bir qator omillardan biri sifatida tarixiy ong dunyo geosiyosiy manzarasida siyosiy va ma'naviy qurol sifatida dolzarb ahamit kasb etmoqda.

---

## СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ

*Акмалжон Ахмаджанов*

*исследователь*

*Наманганский государственный университет*

*Узбекистан, Наманган*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** историческое сознание, история, памятник, мышление, общественное сознание, глобализация, ценность, язык.

**Аннотация:** В статье описаны социальные аспекты совершенствования исторического сознания молодежи, причем историческое сознание становится важной проблемой современности как важная точка глобального общества. Сегодняшнее стремление к изучению подлинной истории народа закономерно ведет к развитию национального сознания. Размышляя о национальном сознании, его аспектах, непосредственно влияющих на формирование мировоззрения молодежи, необходимо учитывать, что образ каждой нации, независимо от ее численности или размера, воплощается прежде всего в ее национальном сознании и психологии. Историческое сознание как один из ряда факторов, формирующих и развивающих национальную социальную память общества, приобретает актуальное значение как политическое и духовное оружие на геополитическом ландшафте мира.

---

### KIRISH

O'quvchi yoshlarning jamiyatga moslashuvi, ya'ni ijtimoiylashuvida tarixiy ong va tarixiy xotiraning ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan biri jamiyatdagi barcha

toifa kishilarini, xususan, O‘zbekiston aholisining qariyb 65 foizini tashkil qiluvchi yoshlarni ona-Vatanga mehr-muhabbatli qilib voyaga yetkazishdir. Bu o‘z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishni taqazo etadi [1,624].

### ASOSIY QISM

Tarixiy ongning shakllantirish faqat bilim (axborot) doirasini kengaytirish emas, kelajakka ishonchni ham mustahkamlashdir. Amerikalik psixolog Abraham Maslouning hozirgacha ko‘p darsliklardan joy olib kelayotgan “inson ehtiyojlari iyerarxiyasi”da tabiiy ehtiyojlardan keyingi o‘rinda tinchlik va xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj, ertangi kunga ishonch ehtiyoji turadi, deb hisoblaydi. Jamiyatni ichki nizolar, sinfiy kurashlar, fuqarolik urushlari, millatlararo va dinlararo mojarolar yemirib yotgan bir sharoitda kelajakka ishonch keskin pasayadi, bugungi kunning tashvishi ertangi kunga katta umid bog‘lab, ulkan rejalar tuzishga yo‘l bermaydi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, “G‘arbning halokati” asari muallifi Patrik Byukenen keyingi o‘n yilliklarda amerikacha vatanparvarlik susayib borayotganini tashvish bilan qayd etadi. “Ota-onalarimiz yosh bo‘lgan paytda, – deb yozadi siyosatshunos, – 89 foiz amerikalik erkak va 94 foiz xotin-qiz Amerikani Yer sayyorasidagi eng buyuk davlat deb tan olishgan edi. Bugungi kunda 58 foiz erkak va 51 foiz ayol Amerika dunyodagi eng yaxshi mamlakat”[2,89] degan fikrda.

Milliy tarixni o‘rganish milliy o‘z-o‘zini anglashga olib keladi. «Milliy o‘zlikni anglashni tiklash milliy uyg‘onishning, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, jamiyat hayotida ro‘y beradigan madaniy-ma’naviy o‘zgarishlarning asoslaridan biridir»[3,28]. Xalqimizning haqiqiy tarixini o‘rganishga bo‘lgan bugungi intilish tabiiy ravishda milliy ongning rivojlanishiga olib keladi. Milliy ong, uning yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga bevosita ta’sir etadigan jihatlari xususida fikr yuritganda har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat’i nazar, eng avvalo, uning milliy ongi va psixologiyasida gavdalanishini e’tiborga olish lozim. Har bir xalq, elat va millat o‘zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo‘lib, unda urug‘, qabila, elat, millatlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odat va an’analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi namoyon bo‘ladi.

Milliy ong insonning biror-bir etnik qatlamga mansubligini his etishi, o‘z o‘tmishi va ajdodlari haqida tarixiy tasavvurga ega bo‘lishi, milliy an’ana, marosim va kadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida anglashidir. Misol uchun “tarixiy xotira milliy ongning komponenti bo‘lgani holda, ijtimoiy ongning boshqa shakllarining o‘rnini bosmaydi va, ayniqsa, ularga zid kelmaydi, balki ular bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi”[4,99], shu bilan birga “individ tomonidan hozirgi zamonning idrok etilishi xususiyati ko‘p jihatdan uning o‘tmishni tushunishiga bog‘liq bo‘ladi. Tarixiy xotira xalqning ijtimoiy borlig‘ini rivojlantirish istiqbolini, ya’ni kelajakni ham muqarrar ravishda qamrab oladi, zero kelajak – o‘tmish va bugungi kunning muayyan yakuni, ularning oqibati hamda davomidir.” [4,99] Tarixiy ong tarixiy xotira asosida shakllanar ekan,

xalqning milliy tarixiy xotirasi yo‘qolishi uning kelajagi barham topishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi farazlar mavjud. Shu bilan birga, tarixiy xotiraning, ayniqsa, milliy tarixiy xotiraning shakllanishida, avvalo, xalq og‘zaki ijodi beqiyos ahamiyatga egaligini ta’kidlash lozim. Har bir xalq ijodida ezgulik va olijanoblik, mardlik va qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tarannum etilgan. Afsonaga aylangan qahramonlar, eposlarda kuylangan jasur o‘g‘lonlar yurt ozodligi uchun kurash, haqiqat va adolat tantanasi yo‘lida mardlik ko‘rsatish timsoliga aylangan. Ezgulik va yovuzlik qurashi muqarrar ravishda ezgulikning g‘alabasi, qora kuchlarning tor-mor etilishi bilan yakun topgan. Hech bir xalq yovuzlik va razolatni, o‘g‘rilik va g‘irromlikni, sotqinlik va hasadgo‘ylikni yoklaydigan yoki oqlaydigan ertak yo rivoyat yaratgan emas. Ayni paytda hamma xalq va elatlarning o‘tmishi faqat ijobiy hodisalardan, yuksak axloqiy qadriyatlardan iborat deyish, ham tarixiy haqiqatga xilofdir.

O‘tmishda yuz bergan minglab, millionlab voqea-hodisalar, yashab o‘tgan milliardlab odamlardan hammasi ham tarixiy xotirada saqlanib qolmaydi, bunday bo‘lishi mumkin ham, zarur ham emas. Tabiiy savol tug‘iladi: qanday voqealar yodda saqlanadi-yu, qandaylari unutiladi? Yangi davr boshlanganda kechagi kun tarixiy xotirasida ustuvor bo‘lgan o‘tmish qahramonlari va qadriyatlari transformatsiyaga uchraydi, yangi kun manfaatlari, ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta baholanadi. Tarixiy xotiraning dolzarbligi va ajratib olish xususiyatining asosiy sabablari quyidagilardir: tarix to‘g‘risida bilimlar (har qanday bilim emas, aynan, tanlab olinayotgan bilimlar) hozirgi davrdagi voqea-hodisalarni sharhlash, chuqur tushunish uchun ahamiyatli bo‘lish bilan bir vaqtda kelajak uchun ham tarixiy tajribaning ta’sirchanligi saqlanishi zarur.

Bugungi kunda yoshlarning tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabat qoniqarli emasligi ularda tarixiy shaxs yoki qahramonlarimiz haqidagi tasavvurlar zaiflashib qolishiga olib kelmoqda. Shu sababli tarixga nisbatan bunday munosabat paydo bo‘lishining asosi bormi, uning ildizlari nimada? – degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Bunga aslida ta’lim izimlarida o‘qitilayotgan tarix fanining qayday singdirilayotganligi jamiyatning tarixiy ongi va tarixiy madaniyati yosh avlodning ijtimoiy o‘zligiga, siyosiy qarashlariga va maslaklariga ko‘p jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Ular har bir jamiyat o‘z kelajagi oldida his etadigan mas’uliyatning bir qismidir. Ayniqsa, bu jamiyat tub siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning uddasidan chiqishi lozim bo‘lgan paytlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bu o‘zgarishlar natijasida odatga aylangan tarix bayonidan voz kechish va yangi tarixiy o‘zlikni zudlik bilan shakllantirish talab etiladi[5,7]. Tarixni jonlantirish uni voqealar ko‘rinishidagi taqdimoti kelajak avlodga tarixiy bilimlarni yetkazishning samarali usullaridan biridir.

Yoshlar tarixiy ongi murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen bo‘lgani bois uni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ham ko‘plab ijtimoiy-madaniy asoslarga tayangan holda kechadi. Aytaylik, o‘zbek xalqining madaniy meroslaridan bo‘lmish me’morchilik san’ati ming yillar davomida yaratilgan bo‘lib, biz uchun go‘yoki tirik tarix ifodasidir. Chunki tarixiy madaniy

obidalarimiz uzoq o'tmishni eslatib turuvchi bir inshootgina emas, balki kishida milliy iftixor, milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantiruvchi, o'tmish haqida xolis tarixiy ma'lumot beruvchi, tarixiy vatanparvarlikni yuksaltiruvchi, qolaversa, jamiyat hayotidagi tarixiy ongning ifodasi bo'lmish tarix madaniyatini shakllantiruvchi muhim vosita ham hisoblanadi. Qadimiy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish qo'xna o'tmishga nisbatan shunchaki bir havas uyg'otish emas, ota makonga, ona-vatanga bo'lgan mehr bilan ham izohlanadi. Tarixiy obidalar jamiyat ma'naviy hayotini yanada boyitib, vatanga, xalqqa, ajdodlarga nisbatan hurmat va ehtirom hissini uyg'otadi. Xususan, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy tarixni tiklash bilan bir qatorda, ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizni rivojlantirish, tarixiy-madaniy obidalarni asrab-avaylash borasidagi ishlar muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy madaniy obidalar yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Inson o'z tarixini chuqurroq bilsa, uning mohiyat-mazmunini anglab yetsagina unda vatan tuyg'usi shakllanadi. Vatanga, xalqqa hurmat- ehtirom tuyg'usini uyg'otishda esa tarixiy yodgorliklarning ahamiyati beqiyos. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Toshkent va boshqa qadimiy shaharlarimizning yoshi 2000 – 2700-yilga tengligining e'tirof etilishi o'lkamiz tarixi naqadar uzoq va boy ekanligidan dalolat beradi. Tarixiy madaniy yodgorliklar shaxs tarixiy ongining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Xullas, ko'xna obidalar insonga estetik zavq berish bilan bir qatorda, axloqiy tarbiya uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy merosni o'rganish, yoshlar dunyoqarashini rivojlantirish milliy an'ana va qadriyatlarimizni ertangi avlodga yetkazuvchi ko'prik vazifasini o'taydi. tarixiy madaniy yodgorliklarni xalqqa, ayniqsa, yosh avlodga o'rgatish orqali ortirilgan bilim va ko'nikmalar yoshlarning tarixiy ongini rivojlantirib, sayqallab boradi.

Hozirgi globallashuv davrida ijtimoiy-madaniy muammolari o'tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashmoq kerak. Sababi – shu paytgacha amal qilib kelgan qoidalar, an'analar hamda ularning g'oyaviy asosi bo'lgan axloqiy qadriyatlar qayta ko'rib chiqiladi va qayta baholanadi. Kechagi kun ma'naviy iyerarxiyasida yuqori o'rinni egallab kelgan tarixiy hodisa, holat va shaxslarning o'rni (bahosi) o'zgaradi. Tarix esa siyosiy kurash maydoniga va mafkuraviy poligonga aylanadi. Hayot charxpalagi shunday aylanadi, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari shu zaylda amal qiladi.

E'tiborli jihati tarix siyosiy hokimiyat uchun kurashayotgan, o'z tarafiga iloji boricha ko'proq ommani jalb qilishga urinayotgan kuchlar, partiya va guruhlar qo'lida mafkuraviy omil va qurolga aylanib bormoqda. Buni biz dunyoda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy harakatlarda ham ko'ryapmiz. Korporativ manfaatlarining obyektivlik va ilmiylik prinsiplariga putur yetmoqda. Natijada tarixiy haqiqatni yangitdan xaspo'shlash, soxtalashtirish, giperbolizatsiya va metafora boshlanmoqda. Bunday vaziyatda yoshlarni milliy tarix bilan qurollantirish hamda ularning tarixiy ongini rivojlantirib

borish zaruriyatini davrning o'zi taqozo etmoqda. Chunki, ijtimoiy-siyosiy hayot sahniga chiqib kelayotgan kuchlar va guruhlar o'z maqsad va intilishlarini ommaga yetkazish uchun eng oson va tez tushunarli bo'lgan o'tmishdan, avval o'tgan qahramonlar va voqealardan prototip axtarmoqdalar.

Shu sababli jamiyatning katta qatlamini tashkil etuvchi yoshlarda tarixiy ongini takomillashtirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir. Globallashuv jarayonlari ta'siri ostida tarixiy ongning o'zgarish qonuniyatlari va tendensiya (mayl)larini o'rganish, ushbu ta'sirning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bir paytda tarixiy ong insonda ushbu xurujlarga qarshi immunitet hosil qiladi hamda turli tarixiy da'volarning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy sabablarini tahlil qilish funksiyasini shakllantiradi. Qolaversa, yoshlarda tarixiy ongni rivojlantiruvchi uslublardan foydalangan holda ularda vatan tuyg'usi, muayyan millatga, xalqqa mansublik iftixori, tarixiy vatanparvarlik, o'z millati bilan identiklikni his etish salohiyati, milliy g'urur, milliy or-nomusni shakllantirish, rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Mazkur xususiyatlar shaxsning vatanparvar bo'lib kamolga yetishishida tayanch hisoblanib shu orqali mamlakat o'zining barqaror kelajagini ta'minlash uchun mustahkam poydevor barpo etadi. Bu sotsial-pedagogik maqsadlarning asosidir.

Hozirgi vaqtda tarixiy ongning eng mashhur modeli – nemis tarixchisi va madaniyat tarixi professori Yorn Ryuzen nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya jamiyatning amaliy hayotida tarixiy ongning ahamiyatiga urg'u bergan holda uning ijtimoiy-madaniy jihatlarini inobatga olish zarurligini uqtiradi. Ryuzen nazariyasiga ko'ra, tarixiy ong inqirozlarini bartaraf etishning asosiy usuli tarixiy narrativ (tarixiy rivoyat) bo'lib, uning yordamida alohida voqealar tarzida xotiraga o'rnatilgan o'tmish tajribalari bir butunlik kasb etib shakllanadi va ma'no-mazmunga ega bo'ladi. Ryuzen tarixiy ongning taraqqiyotini ifoda etuvchi narrativning to'rt tipini ajratib ko'rsatgan. Bular an'anaviy, ibratli, tanqidiy va genetik tiplardir. Zotan, nemis olimining fikricha, tarixiy ong o'tmish tajribasini bugungi kun va kutilayotgan kelajak nuqtayi nazaridan baholab, amaliy hayotda to'g'ri yo'lni topish imkoniyatini hosil qilishdir[6,122-28].

## XULOSA

Biz yoshlarga milliy vatanparvarlikni targ'ib qilar ekanmiz, avvalo, o'quvchi yoshlar ongiga namuna bo'lishga arziydigan buyuk ajdodlarimizning hayoti, vatan uchun qilgan xizmatlari, ko'rsatgan qahramonliklarini hayotdagi ideallari sifatida singdirishimiz lozim. Shundagina ma'naviyati mustahkam, vatanparvar avlod shakllanadi. Qolaversa, hozirgi siyosiy, mafkuraviy qaltis bir davrda milliy tarix va tarixiy ong yoshlar ongida ularda yuz berishi mumkin bo'lgan milliy ma'naviy begonalashuvga qarshi immunitet hosil qiladi. Bugungi kunda dunyoning bir qator mintaqalarida, ayniqsa, yoshlar qatlami orasida begonalashuvning turli ko'rinishlari avj olayotgani buning yorqin misolidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи (Миллий истиқлол даври) 3- китоб. –Тошкент: Шарқ, 2011. – Б. 624.
2. Бюкенен П. Смерт Запада . – Москва: АСТ, 2003. -С.89.
3. Туленов Ж. Маънавият ва ижтимоий тараққиёт. –Тошкент: Мехнат, 2000. – Б.28.
4. Гулямова Д., Никитченко Г. Историческая память как объект изучения социологии. // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент: - 2001. - № 4. -С. 99.
5. Тарих ва ўзликни англаш ИИИ: Ўзбекистон ва Германияда тарихни ёритиш. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.7.
6. Мысливес Н.Л. Историческое сознание молодёжи как предмет социологического исследования / Н.Л. Мысливес // Смена парадигм в историографии всеобщей истории в Республике Беларусь и Российской Федерации : сб. науч. ст./Учреждение образования Гродненский гос. ун-т им. Я.Купалы.- Гродно : ГрГУ им. Я. Купалы, 2016. -С.122-128.